O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 30 - dekabr 411-9-0-Q/23 Sirdaryo viloyati hokimligi

Viloyatdagi jismoniy va yuridik shaxslarga ko‘rsatiladigan qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmati uchun majburiy to‘lov tariflarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4845-sonli qarorining 4-bandi, Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 95-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 24-iyundagi 51-sonli bayoni 20-bandiga muvofiq, Xalk deputatlar Sirdaryo viloyat Kengashining 2023-yil 29-dekabr kunidagi VI-60-196-9-0-K/23 son qarori bilan maqullanganligini inobatga olib viloyatning shahar va tumanlarida qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmati uchun to‘lov ta’riflarini belgilash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi qonunining 6-, 14-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6- va 25-moddalariga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 11-dekabrdagi 02/38/971-sonli tavsiya xati va viloyat “Toza hudud” davlat unitar korxonasining 2023-yil 11-dekabrdagi 01-01-01/392-sonli xati ma’qullansin.

2. “Toza hudud” davlat unitar korxonasi va uning tuman va shahar filiallari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga ko‘rsatiladigan qattiq maishiy

chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmat ko‘rsatish uchun majburiy to‘lov ta’riflari, narxlarni tartibga soluvchi organ bilan kelishgan holda 2024-yil 5-yanvardan boshlab quyidagi cheklangan tariflar belgilansin:

a) jismoniy shaxslar uchun har bir oila a’zosiga oyiga **4 000 (to‘rt ming) so‘m**;

b) yuridik shaxslar uchun 1 metr kub chiqindiga **81 000 (sakson bir ming) so‘m** (QQS bilan birga).

3. O‘zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonunining 18^{1}-moddasiga asosan qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran uch oydan keyin tadbirkorlik subyektlari uchun (davlat byudjeti tashkilotlari va davlat ulushi mavjud bo‘lgan korxonalari bundan mustasno) ushbu yangi tarif bo‘yicha hisob-kitob qilinishi belgilansin.

4. Viloyat Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi (F.Kushakov), Raqobatni rivojlantirish va iste’molchilar huquqini himoya qilish qo‘mitasining viloyat boshqarmasi (Z.Mamatkarimov), tuman va shahar hokimliklariga joylarda viloyat “Toza hudud” davlat unitar korxonasi va uning tuman (shahar) filiallari tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarga qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmati ko‘rsatilishida belgilangan to‘lov ta’riflariga qat’iy rioya qilinishi ustidan nazoratni amalga oshirish topshirilsin.

5. Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi (B.Quvondiqov), Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi viloyat hududiy filiali (K.Sulaymonov)ga tuman va shaharlardagi mahalla fuqarolar yig‘inlari hududida istiqomat qiluvchi abonentlar bo‘yicha ro‘yxatni taqdim etish hamda chiqindi uchun to‘lov hisobini yuritish elektron billing tizimiga kiritish vazifasi yuklatilsin.

6. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi viloyat boshqarmasi (A.Esonov), viloyat Teleradiokompaniyasi (Z.Darxonov), “Yangi Sirdaryo” gazetasi tahririyati (B.Boymurodov)ga ushbu qarorni ommaviy axborot vositalari va rasmiy veb-saytlarda e’lon qilish tavsiya etilsin.

7. Sirdaryo viloyati hokimining 2019-yil 27-fevraldagi “Yuridik va jismoniy shaxslarga ko‘rsatiladigan qattiq maishiy chiqindilarni olib chiqib ketish xizmati uchun to‘lovlar tariflarini belgilash to‘g‘risida”gi 45-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

8. Qaror rasmiy e’lon qilinganidan so‘ng kuchga kiradi, qarorning 2-bandi b-kichik bandi qaror rasmiy e’lon qilinganidan 3 (uch) oydan so‘ng kuchga kiradi.

9. Qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi **A.Maxmudaliyev**